

Oriental Journal of Philology

ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

**CLASSIFICATION OF ARABIC PHRASEOLOGICAL UNITS AND SOME OF THEIR FEATURES IN SPEECH*****Gulnora S. Mutalova***

*Associate Professor, PhD in Philology
Department of Arabic Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
gmoutalova@gmail.com
Tashkent, Uzbekistan*

Aziza J. Khusnutdinova

*1 year student of Master degree faculty
Department of Arabic Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
azizaxusnutdinova25@gmail.com
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Arabic language, phraseology, structural-semantic analysis, linguistic integrity, metaphor, language and culture, grammatical classification, stable expressions, expressiveness.

Received: 08.05.26**Accepted:** 09.05.26**Published:** 10.05.26

Abstract: This article is devoted to the structural and semantic analysis of the phraseological system of the modern Arabic literary language. The study examines the semantic integrity of stable expressions and the degree of interrelation between their constituent components based on fundamental principles of linguistic classification. Special attention is given to the classification and characteristics of Arabic phraseological units formed through idafa constructions, complex adjectival structures, and verbal combinations, as well as to their expressive potential in speech.

ARAB FRAZEOLOGIK BIRLIKLARINING TASNIFI VA ULARNING NUTQDAGI AYRIM XUSUSIYATLARI***Gulnora S. Mutalova***

*Dotsent, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Arabshunoslik oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
gmoutalova@gmail.com
Toshkent, O'zbekiston*

Aziza J. Xusnutdinova
Magistratura 1-bosqich talabasi
Arabshunoslik oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
azizaxusnutdinova25@gmail.com
Toshkent, O'zbekiston

МАҚОЛА HAQIDA

Kalit soʻzlar: arab tili, frazeologiya, struktur-semantik tahlil, lisoniy yaxlitlik, metafora, til va madaniyat, grammatik tasnif, barqaror birikmalar, ekspressivlik.

Annatatsiya: Mazkur maqola zamonaviy arab adabiy tili frazeologik tizimining strukturaviy va semantik tahliliga bag'ishlangan. Tadqiqotda tildagi barqaror birikmalarning ma'no yaxlitligi va tarkibiy qismlarning o'zaro bog'liqlik darajasi tilshunoslikning fundamental tasniflash tamoyillari asosida ko'rib chiqiladi. Arab tilining o'ziga xos grammatik qurilishi — izofa, murakkab sifat va fe'liy birikmalar shaklidagi frazeologik birliklarning tasnifi va xususiyatlari hamda ularning nutqdagi ifodalash imkoniyatlari yoritilgan.

КЛАССИФИКАЦИЯ АРАБСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ И НЕКОТОРЫЕ ИХ ОСОБЕННОСТИ В РЕЧИ

Гулнора С. Муталова
Доцент, доктор философии по филологическим наукам (PhD)
Высшая школа арабистики
Ташкентский государственный университет востоковедения
gmoutalova@gmail.com
Ташкент, Узбекистан

Азиза Ж. Хуснутдинова
Магистрант 1 курса
Высшая школа арабистики
Ташкентский государственный университет востоковедения
azizaxusnutdinova25@gmail.com
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: арабский язык, фразеология, структурно-семантический анализ, лингвистическая целостность, метафора, язык и культура, грамматическая классификация, устойчивые сочетания, экспрессивность.

Аннотация: Данная статья посвящена структурно-семантическому анализу фразеологической системы современного арабского литературного языка. В исследовании с опорой на фундаментальные принципы лингвистической классификации рассматриваются семантическая целостность устойчивых словосочетаний и степень взаимосвязанности их составных компонентов. Освещаются классификация и особенности фразеологических единиц

арабского языка, сформированных в виде
изафетных конструкций, сложных
именных и глагольных сочетаний, а также
их выразительные возможности в речи.

Kirish. Frazeologiya har bir tilda mavjud bo'lgan barqaror iboralar, obrazli so'z birliklari va ularning ma'nosini o'rganuvchi muhim tilshunoslik sohasi hisoblanadi. Bunday birliklar nafaqat tilning lug'aviy boyligini aks ettiradi, balki xalqning dunyoqarashi, madaniyati va tafakkur tarzini ham ifodalaydi. Shu sababli frazeologiya masalalari qadimdan ko'plab tilshunos olimlarning e'tiborini tortib kelgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Jahon tilshunosligida Sh. Balli, A. Kunin, N. Shanskiy hamda V. Vinogradov frazeologiya nazariyasining shakllanishi va rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan yetuk olimlar sifatida e'tirof etiladi. Frazeologiya nazariyasining rivojlanishida rus tilshunosi V.V. Vinogradovning tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. U frazeologik birliklarni semantik yaxlitlik va tarkibiy barqarorlik mezonlariga asoslanib to'rt asosiy turga ajratgan. Mazkur tasnif bugungi kunda ham eng mukammal va samarali tizimlardan biri sifatida tan olinadi. Vinogradov tomonidan ilgari surilgan frazeologik chatishmalar (idiomalar), frazeologik qo'shilmalar va frazeologik birliklar haqidagi nazariya turli tillar materiallari asosida keng qo'llanib kelinmoqda (Vinogradov, 1977, p. 133).

Natijalar va muhokama. Arab tili frazeologik tizimi o'zining nihoyatda boy tarixiy ildizlari, Qur'on tili sifatidagi yuksak maqomi hamda balog'at – بلاغة « balāġa» va bayon – بيان « bayān» an'analari bilan ajralib turadi. Arab notiqlik maktabi asrlar davomida tilning nozik ma'no qatlamlari, iboralar orasidagi semantik bog'liqlik va nutqning ta'sirchanlik mexanizmlarini chuqur o'rganib kelgan. Xususan, Abdulqohir Jurjoniyning mashhur “nazm” – نظم «nazm» nazariyasida so'zlarning o'zaro tartibi va semantik uyg'unligi nutq ma'nosini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida talqin etiladi (Zakirov, 2020, p. 10-14). Ushbu qarashlar zamonaviy frazeologiya uchun ham muhim nazariy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Shunga qaramay, arab tilidagi frazeologik birliklar zamonaviy lingvistika mezonlari asosida hali to'liq va izchil tasnif etilmagan. Bu holat mavjud tadqiqotlarda ma'lum darajadagi ilmiy bo'shliqni yuzaga keltirmoqda. Shu bois arab frazeologizmlarini tizimlashtirish, ularni aniq ilmiy mezonlar asosida guruhlarga ajratish hamda frazeologik tizimning umumiy tuzilishini yoritish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning bosh maqsadi akademik V.V. Vinogradov tomonidan ishlab chiqilgan frazeologik birliklar tasnif tamoyillari asosida arab tiliga tatbiq qilish, tizimli tahlil qilish va ularning lisoniy o'ziga xosliklarini aniqlashdan iborat. Ushbu yondashuv arab frazeologizmlarining semantik yaxlitligi va komponentlararo bog'liqligini aniq belgilash imkonini

beradi. Natijada har bir turga mansub frazeologik birliklarning til tizimidagi oʻrni va funksional xususiyatlari yanada ravshanlashadi. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilanadi:

1. arab frazeologizmlarining semantik va tarkibiy xususiyatlarini aniqlash;
2. frazeologik birliklarni guruhlashga ajratish;
3. har bir guruhga oid frazeologik birliklarni aniq misollar asosida tahlil qilish.

Zamonaviy arab adabiy tilida frazeologik birliklar oʻzining sintaktik qurilishi va leksik-semantik tarkibiga koʻra bir necha yirik guruhlariga ajratiladi. Mazkur guruhlarning lingvistik tabiatini tadqiq etishda akademik V.V. Vinogradov tomonidan ishlab chiqilgan tasnif tamoyillariga tayanish ilmiy jihatdan yuqori samaradorlikka ega. Vinogradov nazariyasi frazeologik birliklarni shunchaki grammatik qoliplar majmuasi sifatida emas, balki semantik yaxlitlik darajasi, yaʼni tarkibiy qismlarning bir-biriga maʼno jihatdan bogʻliqlik mezonlari asosida tahlil qilish imkonini beruvchi eng mukammal metodologik asoslardan biri hisoblanadi.

Arab tili oʻzining boy morfologik imkoniyatlari hamda izofa va murakkab sifat kabi sintaktik aloqalari bilan ajralib turishi sababli, aynan ushbu metodologiya til tizimidagi oʻziga xosliklarni ochib berishda poydevor vazifasini oʻtaydi. V. Vinogradov yondashuvi arab tilidagi koʻplab frazeologik birliklarning semantik motivatsiyasini aniqlashda, yaʼni tarkibiy soʻzlarning oʻz lugʻaviy maʼnosini saqlaganlik darajasini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa frazeologik chatishmalar (idiomalar) va yagonaliklar orasidagi nozik semantik chegaralarni ilmiy asosda ajratishga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, quyida arab tili frazeologik birliklarining struktur guruhlari V. Vinogradov tamoyillari asosida koʻrib chiqiladi:

1. Ismiy frazeologik birliklar

Ushbu guruhda hokim soʻz vazifasida ism qatnashadi. Arab tilida ismiy FBlar koʻpincha izofa (qaratqichli birikma) shaklida namoyon boʻladi. Vinogradov tasnifiga koʻra, bular koʻpincha frazeologik chatishmalar guruhiga yaqin turadi. Masalan, ismiy frazeologik birliklar tarkibiga kiruvchi "قرن الخصب" (Baranov, 1989, p.635) «qarn al-khaṣṣ» iborasi oʻzining birlamchi "hosildorlik shoxi" degan lugʻaviy maʼnosidan uzoqlashib, iqtisodiy barqarorlik va tugalmas farovonlik tushunchasini ifodalovchi turgʻun birikmaga aylangan. Shuningdek, shaxsning salbiy xarakterini kuchaytirishda qoʻllaniladigan "أبو جيب مخزوق" (Baranov, 1989, p.151) «abū jīb makhzūq» birligi "teshik choʻntak otasi" degan soʻzma-soʻz maʼnosidan butunlay koʻchib, topganini oʻylamasdan sarf qiluvchi, moddiy masʼuliyatsiz insonga nisbatan ishlatiladigan kinoyali koʻchma maʼnoni anglatadi.

Ijtimoiy va siyosiy munosabatlarning poydevorini ifodalashda "حجر الزاوية" (Baranov, 1989, p. 157) «ḥajar az-zāwiya» iborasi [soʻzma soʻz: poydevor toshi] markaziy oʻrin tutadi. U

bino burchagiga qo'yiladigan tamal toshi ma'nosidan har qanday jarayonning eng muhim va tayanch qismi degan ko'chma ma'noga o'tgan. Arab xalqining or-nomus va g'urur haqidagi dunyoqarashi esa "وصمة في الجبين" (Baranov, 1989, p. 714) «waṣma fi al-jabīn» birligida [so'zma-so'z: peshona ustidagi dog'] o'z aksini topadi. Ushbu iborada peshona inson sha'ni ramzi sifatida talqin etilgani sababli, u yuvib bo'lmas ayb va sharmandalikni anglatuvchi kuchli semantik bo'yoq kasb etadi.

2. Fe'liy frazeologik birliklar

Fe'liy frazeologizmlar arab tilidagi eng sermahsul va stilistik jihatdan eng boy qatlamni tashkil etadi. Vinogradov nuqtayi nazaridan, fe'lli iboralarning aksariyati frazeologik birikmalar yoki chatishmalarga kiradi, chunki ularning ma'nosi ko'pincha fe'lning leksik-semantik imkoniyatlari bilan chegaralanadi.

Fe'liy frazeologik birliklar tizimida harakat va holatning obrazli ifodalanishi arab tilining o'ziga xos dinamikasini namoyon etadi. Masalan, "ذهب جفاء" (Baranov, 1989, p. 277) «dhahaba jafā'an» iborasi [so'zma-s'z: bekorga ketmoq] tarkibidagi "jafā'un" (ko'pik, chiqindi) so'zi orqali amalga oshirilgan ishning hech qanday foydasiz ekanligi va uning natijasizligiga urg'u beriladi; bu birlik shunchaki "yo'q bo'lmoq" emas, balki qilingan mehnatning behuda ketganini ekspressiv bo'yoq bilan ifodalaydi. Inson a'zolari bilan bog'liq somatik frazeologizmlar sirasiga kiruvchi "حشر أنفه" (Muhammad, 2013, p. 114) «ḥashara anfahu» iborasi esa "burnini suqmoq" degan so'zma-so'z ma'nosidan butunlay ko'chib, shaxsning o'ziga taalluqli bo'lmagan yoki begona ishlarga asossiz va noo'rin aralashuvini anglatuvchi ma'noga ega bo'lgan.

Shuningdek, arab xalqining qadimgi turmush tarzi va an'analari bilan bog'liq bo'lgan "وضع الأمر إلى الخرج" (Baranov, 1989, p. 215) «waḍa'a al-amr ilā al-khurj» frazeologik birligi [so'zma-so'z: ishni tashqariga qo'ymoq] ham chuqur majoziy xarakterga ega. Bu yerda "الخرج" (al-khurjun) kechikish va e'tiborsizlik ramzi sifatida keladi; ibora ishni xurjunga solib qo'yish degan tasvirdan biror vazifani bajarishni asossiz ravishda uzoq muddatga kechiktirish yoki "ishni yopib qo'yish" degan ma'no kelib chiqadi. Bunday fe'liy birliklar gap tarkibida harakatning mazmuniy teranligini oshirish bilan birga, so'zlovchining voqelikka bo'lgan subyektiv va emotsional munosabatini ham aniq ko'rsatib beradi.

3. Adverbial frazeologik birliklar (Ravish yoki ravishdosh FB)

Adverbial FBlar asosan harakatning bajarilish tarzi, o'rni yoki vaqtini aniqlashtiradi. Vinogradov tasnifida bular barqarorligi bilan ajralib turuvchi frazeologik yoki barqaror birikmalarga yaqin keladi.

Adverbial frazeologik birliklar tizimida harakatning holati, tarzi va namoyon bo'lish darajasini ifodalashda arab tilidagi tabiiy hamda hayotiy elementlar markaziy o'rin tutadi. Masalan, "أدرج الرياح" (Baranov, 1989, p. 250) «adrāj ar-rīāḥ» iborasi [so'zma-so'z: shamol

yo'llarida] shunchaki jismoniy yo'qolishni emas, balki qilingan sa'y-harakat yoki rejaning butunlay barbod bo'lishi, havoga uchishi va ortidan hech qanday natija qolmasligini anglatuvchi obrazli ko'chma ma'noga ega. Bu yerda "shamol" so'zi barqarorsizlik, o'tkinchilik va inson irodasiga bo'ysunmaydigan kuchlar ramzi sifatida semantik yuk tashishga xizmat qiladi.

Shaxsning qat'iyati va ko'zlangan maqsad yo'lidagi murosasizligini ifodalashda qo'llaniladigan "بجدع الأنف" (Baranov, 1989, p. 120) «bijadi' al-anf» iborasi [so'zma-so'z: burunni kesish evaziga bo'lsa ham] o'zining jismoniy tasviridan butunlay abstraktlashib, "nima bo'lganda ham" yoki "arzimagan narxda" degan ma'noni anglatadi.

4. Adjektiv frazeologik birliklar (Murakkab sifat shakldagi FB)

Adjektiv FBlar shaxs yoki predmetning turg'un belgi-xususiyatlarini ifodalaydi. Bular kognitiv metaforalarning eng yorqin namunalari bo'lib, Vinogradov ularni frazeologik yagonaliklar sirasiga kiritadi, chunki ulardagi obrazlilik saqlanib qoladi

Arab tilida insonning jismoniy a'zolari va ularning holati ko'pincha ma'naviy-axloqiy sifatlarga ko'chiriladi. Xususan, "خفيف الرجل" (Muhammad, 2013, p. 172) «khafif ar-rajul» iborasi [so'zma-so'z: oyog'i yengil] faqatgina jismoniy tezlikni emas, balki ijtimoiy faollikni, xususan, mehmondo'stlik yoki doimiy harakatdagi shaxsni ifodalovchi ijobiy semantik yukka ega. Ushbu birlikda "yengillik" tushunchasi chaqqonlik va g'ayrat ramzi sifatida namoyon bo'ladi.

Aksincha, "خفيف اليد" (Baranov, 1989, p. 228) «khafif al-yad» iborasi [so'zma-so'z: qo'li yengil] arab tilida o'ziga xos semantik ambivalentlikka (ikki ma'nolilikka) ega bo'lib, u qo'llanilish kontekstiga ko'ra turlicha talqin qilinishi mumkin. Bir tomondan, bu birlik hunarmandchilikda mahoratli, ishga epchil ustani tavsiflasi, ikkinchi tomondan, xalq tilida "qo'li egri", ya'ni o'g'rilikka moyil shaxsga nisbatan salbiy munosabatni bildirish uchun xizmat qiladi. Bunday ma'no ko'chishlari frazeologik birlikning nutqiy vaziyatga qanchalik bog'liqligini ko'rsatadi.

Insonning aqliy imkoniyatlarini baholashda qo'llaniladigan "ثاقب الفكر" (Muhammad, 2013, p. 103) «thāqib al-fakr» iborasi [so'zma-so'z: fikrni teshib o'tuvchi] zehn o'tkirligi va uzoqni ko'ra bilish qobiliyatiga ishora qiladi. Bu yerda fikrning "teshib o'tishi" har qanday murakkab masalaning mohiyatini darhol anglash va mantiqiy yechim topish mahoratini ifodalaydi. Shuningdek, insonning ruhiy quvvati va irodasini tavsiflovchi "ثابت القلب" (Baranov, 1989, p.108) «thābit al-qalb» birligi [so'zma-so'z: yuragi barqaror] qiyinchiliklar qarshisida chekinmaydigan, matonatli va mard shaxs obrazini yaratadi. Arab tili adjektiv frazeologiyasi orqali inson xarakterining bunday nozik qirralarini yoritish tilning nafaqat boyligini, balki kognitiv-psixologik jihatdan naqadar teranligini ham isbotlaydi.

Xulosa. Arab tili frazeologik birliklarining grammatik va semantik tadqiqi shuni ko'rsatadiki, bu lisoniy hodisalar tilning shunchaki bezagi emas, balki uning ichki mantiqiy

qurilishi va xalqning o'ziga xos tafakkur tarzini aks ettiruvchi murakkab tizimdir. Tadqiqot davomida akademik V.V. Vinogradov tasnifining arab tili materialiga tatbiq etilishi, tildagi barqaror birikmalarni semantik yaxlitlik darajasiga ko'ra tizimlashtirishda eng samarali metodologik yo'l ekanligini isbotladi. Arab tilining o'ziga xos grammatik tabiati, xususan, flektiv-sintetik qurilishi va izofa kabi konstruksiyalari frazeologik birliklarning hosil bo'lishida poydevor vazifasini o'taydi.

Olib borilgan tahlillar natijasida ko'rish mumkinki, arab frazeologizmlari o'zining strukturaviy rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ismiy, fe'liy, adverbial va adjektiv guruhlariga bo'lingan ushbu birliklarning har biri nutqda o'ziga xos sintaktik vazifani bajarish bilan birga, so'zlovchining emotsional-ekspressiv munosabatini ham aniq ifodalaydi.

Shu jihatlardan arab tili frazeologiyasini tizimli o'rganish nafaqat tilshunoslik ilmini boyitadi, balki muloqot madaniyatini yuksaltirishga, matnlarning ta'sirchanligi va obrazlilikini chuqur anglashga xizmat qiladi. Frazeologik birliklarning semantik tabiati va grammatik qurilishini o'rganish tilning ichki imkoniyatlarini ochib berish bilan birga, tarjimashunoslik va leksikografiya sohalari uchun ham yangi amaliy istiqbollarni belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Azodovna, B.D. & Jakhongirovna, K.A. (2025). Different Approaches to Translating Phraseological Units. The International Scientific-Practical Conference. Vol. 1(1), 370–377. Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18117979>
2. Baranov, K.H. (1989). Arabic-Russian Dictionary: approx. 42,000 words. Arabsko-russkiy slovar: ok. 42000 slov. – Moscow: Russian Language. – 928p. (in Russian)
3. Begmatova, B.M., Mutalova, G.S., & Kasimova, S.S. (2023). The Direct Object and Its Use in Arabic Language. Boletín de Literatura Oral-The Literary Journal. Vol. 10(1), 3601–3609.
4. Bekirov, R.A. (2016). Lexico-Semantic Features of Verbal Phraseologisms of Modern Arabic Language. Textbook: Part 1. Leksiko-semanticheskie osobennosti glagolnykh frazeologizmov sovremennogo arabskogo yazyka. Uchebnoe posobie: Chast 1. –Simferopol. – 112 p. (in Russian)
5. Features of Functioning of Non-Proper Prepositions and Preposition-Nouns in Arabic Language (2025). International Conference on Educational Discoveries and Humanities, 168–170. retrieved from <https://econfseries.com/index.php/4/article/view/2130>
6. Features of Functioning of Non-Proper Prepositions and Preposition-Nouns in Arabic Language (2025). International Conference on Educational Discoveries and Humanities, 168–170. retrieved from <https://econfseries.com/index.php/4/article/view/2130>

7. Muhammad, M.D., et al. (2013) Dictionary Of Idioms In Contemporary Arabic : Part One. al-Mu‘jam al-Mawsu‘i li al-Ta‘bir al-Istilahi fi al-Lugha al-‘Arabiyya: al-Juz’ al-Awwal. – Cairo. – 553p. (in Arabic)
8. Ruzaliyev, H. (2025). Classical and Modern Linguistic Interpretations of Arabic Phraseology. Contemporary Approaches and New Research in Modern Science, 4(10), 41–44. retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/canrms/article/view/113752>
9. Tojiyeva, Z.Z. (2025) Translation of Phraseological Units in Arabic and Uzbek Languages: Problems, Methods, and Cultural Differences // Researches. Arab tili frazeologiyasining klassik va zamonaviy tilshunoslikdagi talqini // Tadqiqotlar.Vol. 64(2), 137–141. (in Uzbek)
10. Ushakov, V.D. (1996). Phraseology of the Quran: Comparative Study of Quranic Expressions and Classical Arabic Language. Frazeologiya Korana: Opyt sopostavleniya frazeorecheniy Korana i arabskogo klassicheskogo yazyka. – Moscow: East Literature Publishing. – 204p. (in Russian)
11. Vinogradov, V.V. (1977). Russian Language. Grammatical Doctrine of the Word // Lexicology and Lexicography. Selected Works. Russkiy yazyk. Grammaticheskoe uchenie o slove // Leksikologiya i leksikografiya. Izbrannye trudy. – Moscow, 118–161. (in Russian)
12. Zakirov, P.P. (2020). Methods of Conveying Quranic Phraseology in Russian Translations. Chrestomathy. Sposoby peredachi frazeologii Korana v perevodakh na russkiy yazyk // Khrestomatiya. – Bulgaria. – 88 p. (in Russian)